

Luqmon Bo'Rixonning "Qo'Noq" Hikoyasida Mifologik Qarashlar

*Ne'matullayeva Sohibaxon*¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada Luqmon Bo'Rixonning "Qo'noq" hikoyasi misolida o'zbek hikoyachiligining istiqbol davriga xos mifologik syujetlar va folklor unsurlarining badiiy ifodasi tahlil qilingan. Yozuvchi asar qahramonlariga ramziy ismlar tanlash orqali hayotning turli bosqichlarini va inson taqdirini aks ettiradi. Shuningdek, asarda safar motivi va umrning o'tkinchiligi haqidagi mifologik qarashlar, o'ziga xos ramzlar, fetishizm hamda animizm tushunchalari orqali yoritiladi. Hikoya insonning hayot va o'lim orasidagi safarini falsafiy talqin etish orqali o'quvchini chuqur o'yga chorlaydi.

Kalit so'zlar: hikoya, folklorizm, rivoyat, mif, fetishizm, motiv, safar, ramz.

Luqmon Bo'Rixon bugungi kun hikoyachilik yo'nalishining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, u o'zining turli xil mavzularni qamrab olgan hikoyalari bilan badiiy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. Ijodkorning har bir asarlarida keltirilgan badiiy obrazlar, ramzlar va o'xshatmalar mavjud bo'lib, uning navbatdagi "Qo'noq" hikoyasida voqelikni tasvirlashda mifologik qarashlardan hamunumli foydalangan.

Asarning voqealari poyezdda bo'lib o'tgan tanishuv bilan boshlanib, manzilga yetilmasdan o'z yakunini topadi. Yozuvchi asarining bosh qahramonlariga ism tanlashda ham o'z gacha uslubdan foydalangan holda yo'l tutadi va asarning har bir qahramoniga ramziy (Bek, Boy, Jon, Qul) ismlar tanlash orqali, butun borliqni, umrning turli bosqichlari, hayotning asl mazmuni va hayotning turli bosqichlarinitasvirlovchi "ism"lardan foydalangan. Zero, bu olamda beklar, boylar, jonlar va shular qatorida qullar ham birdk umr kechiradilar. Lekin bu qahramonimizga hikoyada alohida nom berilmaydi, balki u turli xildagi nomlar (ajab nusxa, qo'noq, jabrdiyda, ezma, o'tkinchi, lo'livoy, o'g'ri, kutilmagan sherik,) bilan atash orqali unga tegishli bo'lgan turli odatlarni shu ta'riflar orqali ifodalab beradi.

Yozuvchining asarni nomlashiga e'tibor bersak, "Qo'noq" so'zining asl ma'nosini o'zbek tilining izohli lug'atida "*Qo'noq- biror joyga, biror kimsaning uyiga qo'ngan, tushgan yo'lovchi, sayyoh, mehmon; 2) qushlar qo'nadigan dor, qo'ndoq*"[1.] ma'nolarini ifodalaydi. Bu nomni ko'rib nafaqat asar qahramoni, balki butun dunyoda yashayotgan har bir inson bu olamga "qo'noq" ya'ni bir kelib, ma'lum bir vaqt o'tirib ketguvchi insonlar ekanligiga ishora sifatida ko'rinadi.

Xalq og'zaki ijodida eng ko'p uchrovchi motivlardan biri bu "safari" motivi bo'lib, safari inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodislardan biri hisoblanadi. Inson hayotini ham bir safari sifatida tasavvur etish mumkin. Aksariyat hollarda asar qahramoni ma'lum bir maqsad bilan yo'lga chiqadi va safari davomida turli qiyinchiliklar, sinovlar, tilsimlarga duch keladi. o'zi o'rgangan muhitdan chiqadi, olamni qayta anglaydi va rivojlanadi.

Har bir insonning umri aslida bu foni dunyoga bir safari bo'lib, unda asarda keltirilgan boylar, beklar va qullar kabi hayot kechiradilar va o'zlarining haqiqiy olami sari rixlat qiladilar. Bu ilk mifologik qarashlarda ham shunday tasvirlangan bo'lib, qadimgi dunyo tarixida insonlar odamlar vafot etganlaridan keyin, foni dunyoga ruxlari qushga aylangan holda uchib borishlariga ishongan va xatto, ularning suyaklarini ham maxsus idishlarga solib ruxlarning qushlarga ko'chishlariga ishonganlar.

¹ Andijon davlat universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi



Asarning hayot va o'lim orasidagi jarayon haqida ekanligining yan bir isboti sifatida uning boshlanmasida keltirilgan jumalarga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

“Uni ko'rdim-u yuragim orqaga tortib ketdi. U tobutdek tebranib borayotgan vagon tamburining bir burchida cho'nqayib o'tirar, har bir burchida cho'nqayib o'tirar, har bir o'tib qaytuvchini qon nuqsi urgan ko'zlari bilan qiziqsinib-qiziqsinib, bosh-oyoq kuzatib borardi. [2]”

Asarda ko'plab ramziy obraz va vositalar ham ko'rsatilgan bo'lib, “o'zbek tilining izohli lug'ati”da ramzga quyidagicha ta'rif beriladi: “Ramz- biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora”. [3.]Adabiyotshunoslik terminlar lug'atida “Ramz- (arabcha so'z bo'lib- imo-ishora, imlash) simvol, ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchiso'z yoki so'z birikmasi, obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ham ko'chma ma'noda qo'llaniladi. [4. 245-bet]

Yuqorida keltirilgan parchada tasvirlanayotgan tobut ham ko'chish ya'ni tanning bu dunyodan u dunyoga o'tishiga ko'maklashuvchi, mayitni so'nggi yo'lga yetkazib boruvchi vosita vazifasini bajaradi. Tobutni insonlar yo'lda olib ketish jarayonida chayqalib borishini esa ijodkor bevosita poyezd vagonlarining tebranib ketayotganiga o'xshatadi. Hayot ham bir yo'l va bandalar bir yo'lovchi bo'lib, kim qaysi qo'ldan, qay holda ketmasin oxir borar manzil bitta, poyezda ham har bir yo'lovchini bir manzilga olib boradi, ya'ni borar manzil bir ekanligiga ishora sifatida qo'llaydi.

Ko'plab dostonlar va ertaklarda asar bosh qahramonlari safar davomida turli do'stlar orttiradilar va ular orqali umrining kamolot bosqichlariga yetishadilar, turli xildagi sinovlarni yengib o'tadilar, afsonaviy-fantastik jonzodlarni yengishda bir biriga yordam beradilar. Lekin bugungi kun asarlari qahramonlari bir biriga hayot haqiqatlarini anglash va umrning asl mazmuni nimada ekanligini anglash uchun yordam beradilar.

Asardagi asosiy voqealar tamburda bo'lib o'tadi va tamburni yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: *“Hamma matohi temir-tersakdan bo'lgan oddiy vagon tamburi. Tepada xira chiroq. Oyoq ostida sigaret qoldiqlari, qog'oz latta bo'laklari sochilib yotibdi. Ko'kish rangga bo'yalgan temir “devor” [2] - tamburning naq humat kitobi deb o'ylaysiz. Unga kimlardir o'z ismini, shaharining nomini hafsala bilan o'yib yozgan hatti yana allakim no'noqlarcha yurak va nayza tasvirini ham tushiribdi, an'anaga hilof ravishda nayzaning ikki uchiga katta katta harflar yozishni unutibdi. Kim biladi, balki shoshgandir [2]”* mazkur ta'riflar orqali ham yozuvchi poyezdni o'tkinchi umrga ishora qilayotganini anglasak bo'ladi. Bu “umr devorlari”ga qanchadan-qancha insonlarning o'z “iz”larini qoldiradishlariga ishora sifatida ko'rsatadi.

Asar bosh qahramoni bo'lgan “qo'noq” haqida so'z borar ekan, u boshqa insonlarga o'xshamaydi. Olamni qurshab olgan turli xildagi tiplardan holi, o'z fikri, o'zining hech kim tushunmaydigan dunyosi mavjud. Chunki, u qamoqdan chiqqaniga endigina uch kun bo'lgan 22 yoshlar atrofidagi yosh va navqiron yigit bo'lishiga qaramasdan hayotning ko'p zarbalariga uchraganligini unig yuz ko'rinishlari, ust-boshidan ham bilsak bo'ladi. U yillar davomida qamoqda bir kishilik kamerada yashadi, o'zi orzu qilgan va yetishishni xohlagan oqlik o'lkasiga “uchish” maqsadida o'z hayollari ichida yashadi. Man bugun esa u kutgan kun keldi va “qafas”ga o'xshagan tamburda bu sirli “qush” o'z parvozig a shaylanmoqda. Bu oqlik o'lkasi qahramonning hayotidagi yagona yuoanch va ilinj edi. U mazkur oqlik o'lkasi tomon uchishni har doim kutar edi. Uni hayotda ushlab turgan yagona orzu ham manashu oqlik o'lkasi edi. Fikrlarimizga isbor sifatida ajabnuksaning mazkur so'zlarini keltirishimiz mumkin. *“Kamera devrorini ham shunday oqlikka bo'yardim-da, tong otguncha termulib o'tirardim. Shu oqlikka termulsam o'zimni ko'm-ko'k osmonda, oppoq bulutlar orasida ozod uchib yurganday his qilaman. Termulganim sayin shu oqlikka singib ketayotganday bo'laveraman. Eh, nimasini aytay, o'sha beton devrlarning bir qulochgina oqqa bo'yalgan joyi meni uch yil omon saqladi, uch yil!..” [2]*

Har bir inson bu hayotda yashar ekan, nimagadir intilib, undan kuch olib yashaydi. Bu ajabnuksani bir ko'rganda boshqa “risoladagdek” odamlarning ko'ngli buzilsa-da, shu holatida ham katta ozrular bag'rida yashayotgan, qalbi umidlarga to'lib yotgan edi.



Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o‘simlik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo‘lishini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida baholangan.

Ayniqsa, sehrli ertaklarda va aytim dostonlarda o‘lgan insonning joni og‘zidan qush qiyofasida chiqib ketishiga misollar ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bu qarashlarga bevositaanimistik qarashlar asos bo‘lganligining guvohiga aylanishimiz mumkin.

«Animizm» lotin tilidagi «anima»dan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda jon, ruh ma’nosini anglatishi ta’kidlanadi. Animizmga binoan qadimgi ajdodlarimiz dunyodagi hamma narsaning joni bor, deb bilganlar. Ibtidoiy davrda inson tana va ruhdan iborat hisoblangan. Ular ham ruh tanani tark etganda inson o‘ladi, deb o‘ylashgan. Har bir narsaga bu tushuncha tatbiq etilgan. Shuning uchun mifologiyadagi totemizm va fetishizm hodisalariga ishonch bildirishni, ularning mavjudligiga bo‘lgan e’tiqodiy munosabatni animizm bilan bog‘lash ma’qul. Sodaroq qilib aytganimizda, odamning totemizm va fetishizm hodisalariga ishonishi uyg‘un holatda animizm namoyon bo‘ladi.

So‘z san’atining ibtidosini tashkil etuvchi folklor va uning barhayot an’analari o‘zbek realistik adabiyotining parvozini, falsafiy qamrovini, hayotiyli va xalqchilligini hamisha ta’minlashga qodir bezavol manbaa vazifasini o‘taydi.[5.65-bet]

Asar oxirida boshqalarga o‘xshamasligi bilan bizni o‘ziga jalb qilgan qahramonimiz yana o‘z qo‘nog‘ida oqlik olamiga termulgan holda tasvirlanadi: “ *unga yana beixtiyor ko‘zim tushdi. U hamon cho‘nqayib o‘tirar, o‘sha bo‘yalgan joyiga toliqmay tikilar edi. Ajabnusxa xuddi shu o‘tirishida qushga o‘xshardi. Ha, bahaybat, mag‘rur qushga o‘xshar edi! U, nazarimda, o‘zining bepoyon oqlik o‘lkasi tomon mangu parvozga shaylanayotganday tuyuldi.* ” asar boshidan buyon turli xildagi badiiy tasvir vositalari orqali bizni o‘yga toldirgan yozuvchi hikoya so‘ngida o‘zining asl maqsadini, nimani ifodalab bermoqchi bo‘lganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. o‘zbek tilining izohli lug‘ati. (ziyouz.com)
2. ziyouz.com sayti Luqmon Bo‘rixon “Qo‘noq” hikoyasi.
3. Mahkamov Qodirjon. Dinshunoslik (uslubiy qo‘llanma). - Namangan, 2020
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т: Академнашр, 2013. – 408 б.
5. Mirzayeva S. o‘zbek realistik adabiyotida folklor an’analari. Folklorshunoslikdan o‘quv-uslubiy qo‘llanma, -T.: “Istiqlol”, 2005.

